



TOP-CONFERENCES

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

O'zbekistonda Makroiqtisodiy Ko'rsatkichlarning Statistika Tadqiqi

Arzikulov Otabek Ali o'g'li

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida dotsenti

Umrzoqov Hasan Abdunazar o'g'li

Jizzax politexnika instituti Servis fakulteti 531-23 BH-A guruhi talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Statistika fani jamiyatning turli sohalarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiyot, ta'lim va boshqa sohalarida qaror qabul qilish jarayonlarini ilmiy asoslashda qo'llaniladi. O'zbekistonda statistik tizimning rivojlanishi mustaqillik yillaridan boshlab yangi bosqichga ko'tarilishi kabi jarayonlar aks etadi.

Kalit so'zlar: statistika metodologiyasi, statistik tahlil, kichik biznes, prognozlash, dasturiy ta'minotlar, ma'lumotlar aniqligi, ommaviy axborot vositalari, aktivlar sifatini tansiflash.

Statistika bugungi kunda ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy sohalarida muhim vositalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida statistika tizimi mustaqillikdan keyin rivojlana boshladi va bugungi kunda zamonaviy talablar asosida faoliyat olib bormoqda. Davlat statistika qo'mitasi milliy statistika ma'lumotlarini yig'ish, tahlil qilish va ommaga taqdim etish bo'yicha asosiy tashkilot hisoblanadi. So'ngi yillarda mamlakatda raqamli texnologiyalar statistik tadqiqotlarda qo'llanila boshladi. Jumladan, aholini ro'yxatga olish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognoz qilish va tahlil qilishda zamonaviy dastur ta'minotdan foydalanish ko'lami kengaytirish maqsad qilingan. Hududiy statistika rivojlanishi, qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat korsatish sohalarida ma'lumotlarning to'g'ri tahlili va ularning amaliy ahamiyatini oshorosh uchun qo'shimcha choralar ko'rilmogda. Kelgusi statistik tahlil usullarini takomillashtirish, xalqaro standartlarga muvofiqlikni oshirish hamda yangi texnologiyalarni faol joriy qilish orqali statistik tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish zarur. Shu bilan birga, O'zbekiston statistika tizimini global miqyosda tanitish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish mamlakatning statistik salohiyatini oshiradi. O'zbekistonda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning statistik tahlilining bugungi holati. Davlat statistika qo'mitasining faoliyati. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi mamlakatda yagona statistika metodologiyasini ishlab chiqish va davlat statistika kuzatuvlarini amalga oshirish uchun ma'sul tashkilot hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi. Statistik tahlil jarayonlarida zamonaviy dasturiy ta'minot va matematik usullardan foydalanish kengaymoqda. Masalan, statistik axborot fayllarini tahlil qilish va prognozlashda matematik va dasturiy-texnik qo'llaniladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida statistik ma'lumotlarning ahamiyati.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi statistik ma'lumotlarning to'g'ri va tezkor yig'ilishi, tahlil qilinishi va taqdim etilishini talab qiladi. Bu esa statistik tadqiqotlarda yangi usullar va texnologiyalarning joriy etilishini taqazo etadi.

Hududiy va sohaviy statistikani rivojlantirish yo'llari.

Mamlakatning turli hududlari va sohalarida statistic ma'lumotlarning to'planishi va tahlil qilinishi hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy faoliyati ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Oliy ta'lim tizimida statistik tahlil usullarining o'qitilishi va ilmiy tadqiqotlarda qo'llanilishi ilmiy salohiyatni oshirishdamuhim rol o'ynaydi. Mamlakatimizda 2019-yilda O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi bu borada muhim hujjat hisoblanadi. (Xs.uz)

Mavzuni yanada to'liqroq yoritish uchun statistic tahlillarni aks ettiruvchi ayrim jadvallarni taqdim etamiz. Quyida "O'zbekistonda statistik tahlil va tadqiqotlar rivoji" mavzusiga oid asosiy ko'rsatkichlar uchun jadvallar keltirib o'tamiz.

O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish statistikasi(namunaviy jadval).

Yil	Aholi soni (mln)	Shaharlarda Yashovchi Aholi (%)	Qishloqda Yashovchi aholi(%)	O'sish sur'ati (%)
2010	27.3	36	64	1.4
2015	30.0	38	62	1.6
2020	34.5	41	59	1.8
2023	36.2	42	58	1.9

O'zbekistonda iqtisodiy ko'rsatkichlarining statistik tahlili

(namunaviy jadval)

Yil	YaIM (mlrd.USD)	Sanoat (%)	Qishloq xo'jaligi(%)	Xizmat ko'rsatish(%)
2015	65.5	30	20	50
2020	72.0	33	18	49
2023	85.3	35	15	50

Davlat Statistika Qo'mitasining faoliyat samaradorligi. (namunaviy jadval)

Yil	Yangi kuzatuv Turlari(soni)	Elektron xizmatlar Ulushi(%)	Xalqaro standartlarga moslik (%)
2015	15	40	60
2020	25	70	75
2023	30	85	90

Ilmiy-tadqiqot ishlarida static usullardan foydalanish (%)

Soha	2015	2020	2023
Iqtisodiyot	50	65	75
Tibbiyot	40	55	70
Qishloq xo'jaligi	30	50	60
Texnologik tadqiqotlar	25	45	60

Xulosa va takliflar

O‘zbekistonda statistik tahlil va tadqiqotlarni yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Kadrlar tayyorlash: Statistika sohasida malakali kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishga e’tibor qaratish lozim. Bu borada ilmiy darajali kadrlar tayyorlash jarayonini statistik tahlil qilish va prognozlash muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish: Statistik tahlil jarayonlariga zamonaviy dasturiy ta’minot va texnologiyalarni keng joriy etish orqali ma’lumotlarning aniqligi va tezkorligini oshirish mumkin.

Xalqaro hamkorlik: Xalqaro statistik tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va tajriba almashish orqali milliy statistika tizimini takomillashtirish mumkin.

Aholining statistik savodxonligini oshirish: Jamiyatda statistik ma’lumotlardan foydalanish madaniyatini oshirish uchun ommaviy axborot vositalari va ta’lim muassasalari orqali targ‘ibot ishlarini olib borish lozim.

Yuqoridagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonda statistik tahlil va tadqiqotlar sifati va samaradorligi oshadi, bu esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev N.X. va boshqalar. (2018). Statistika nazariyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. Xodjayev A.H. (2020). Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
3. Karimov I.A. (1997). O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: O‘zbekiston.
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. (2022). Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning statistik bahosi. Toshkent: TDIE nashriyoti.
5. Tursunov X. va boshqalar. (2021). Iqtisodiy statistika. Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti.
6. Otabek, A., & Dilshod, T. (2023). TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTFELINI BOSHQARISH YO‘LLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 158-167.
7. Otabek, A., & Oybek, R. (2023). Statistical study of accounting reports in manufacturing enterprises. *Academia Science Repository*, 4(04), 96-104. dotsent, Jizzax politexnika institute
8. Кузьмина, С. Н., & Атамуратова, Г. М. (2023). МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 11-16.
9. Ali o‘g‘li, A. O. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTNING JADALLASHUVIDA JIZZAX VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHNING ASOSIY JIHATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 94-96.